

INVESTITSİYALARNING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNİ

Tojinazarov Sardorbek Muhiddinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

email: sardorbektojinazarov07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda investitsiyalarning milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi ahamiyati va iqtisodiy o'sishga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, investitsion muhit va mamlakatdagi amaliy misollar ko'rib chiqiladi. Ishda investitsiyalarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirish va yangi ish o'rinlari yaratish masalalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: investitsiya, milliy iqtisodiyot, iqtisodiy o'sish, kapital oqimi, investitsion muhit, barqaror rivojlanish.

Har qanday davlat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi investitsiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va infratuzilmani rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli investitsiyalar masalasi iqtisodiyot nazariyasi va amaliyotida doimo dolzarb bo'lgan.

Investitsiya – bu kelajakda daromad olish maqsadida iqtisodiyotning turli sohalariga yo'naltirilgan mablag'lar majmuasidir. Investitsiyalar real va moliyaviy shakllarda bo'lishi mumkin. Real investitsiyalar ishlab chiqarish vositalariga, korxonalar qurilishiga va modernizatsiyasiga yo'naltirilsa, moliyaviy investitsiyalar qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy instrumentlarga kiritiladi.

Milliy iqtisodiyot rivojlanishida investitsiyalarning roli bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Avvalo, investitsiyalar ishlab chiqarish hajmini oshiradi va yalpi ichki mahsulot o'sishiga xizmat qiladi. Shuningdek, yangi korxonalar tashkil etilishi natijasida aholi bandligi ta'minlanadi. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali mahsulot sifati va raqobatbardoshlik darajasi ortadi.

Investitsion muhitning qulayligi ham muhim ahamiyatga ega. Qonunchilikning barqarorligi, soliq tizimining shaffofligi va infratuzilmaning rivojlanganligi investorlar uchun ishonch muhitini yaratadi. Shu bois davlat tomonidan investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bizning tadqiqotlarimiz natijasiga ko‘ra, investorlarni jalb qilishda nafaqat qonunlar, balki amaliy qulaylik ham muhim ahamiyatga ega. Agar ruxsat olish jarayonlari murakkab bo‘lsa yoki ortiqcha byurokratik to‘siqlar mavjud bo‘lsa, investorlar boshqa davlatni tanlashi mumkin. Shu sababli investitsion muhit nafaqat huquqiy, balki tashkiliy jihatdan ham qulay bo‘lishi kerak.

Bugungi globallashuv sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ham milliy iqtisodiyot uchun muhimdir. Ular nafaqat kapital oqimini oshiradi, balki yangi boshqaruv tajribasi va innovatsion texnologiyalar kirib kelishiga sabab bo‘ladi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda sanoat va infratuzilma sohalariga yo‘naltirilgan

investitsiyalar iqtisodiy faollikning oshishiga xizmat qilmoqda. Masalan, 2022-yilda O‘zbekiston iqtisodiyotiga 30 milliard AQSH dollaridan ortiq investitsiyalar jalb qilingan. Bu ko‘rsatkich sanoat, energetika va qurilish sohalarida yangi loyihalarning amalga oshirilishiga turtki bo‘ldi. Natijada yangi korxonalar ishga tushirilib, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratildi.

Bizning tadqiqotlarimiz natijasida ko‘ra, investitsiyalar masalasi ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar uchun juda muhim hisoblanadi. Chunki ishlab chiqarishning kengayishi va yangi ish o‘rinlarining yaratilishi ko‘p

jihatdan investitsiya hajmiga bog‘liq bo‘ladi. Agar investitsiyalar yetarli darajada bo‘lmasa, iqtisodiy o‘sish sekinlashishi mumkin.

1-jadval.

O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalarning mamlakat YaIM hajmidagi ulushi[4].

Yil	YaIM hajmi (mlrd so'm)	Investitsiyalarning YaIMdagi ulushi (%)
2017	317 476,4	23,9 %
2018	426 641,0	30,6 %
2019	532 712,5	38,3 %
2020	609 514,9	36,2 %
2021	738 425,2	32,4 %

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, investitsiyalar milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Investitsion jarayonlarni faollashtirish orqali ishlab chiqarish kengayadi, bandlik darajasi oshadi va mamlakatning iqtisodiy salohiyati mustahkamlanadi. Shu sababli har bir iqtisodchi investitsion jarayonlarning mohiyatini chuqur o'rganishi zarur deb hisoblayman. Mening tatqiqotlarim natijasiga ko', O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar investitsiyalar hajmining yanada oshishiga xizmat qiladi. Agar bu jarayon izchil davom etsa, kelajakda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi yanada kuchayadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar:

1. Vahobov A.V., Xajibakiev Sh.X., Tadjibayeva D.A. Investitsiyalar: darslik. – Toshkent: Moliya, 2010. – 328 b.
2. Vahobov A.V., Qo'shnazarov B. Investitsiyalarni moliyalashtirish: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2014. – 240 b.
3. Gulbahor A., Sayyora A. RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'SISH SUR'ATLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI STATISTIK BAHOLASH //Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. – 2025. – T. 1. – №. 8. – C. 959-963.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi: statistik to'plam. – Toshkent, 2022. – 210 b.

5. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjeti ijrosi to‘g‘risida yillik hisobot. – Toshkent, 2022.